



MUHAMMAD YUSUF IJODIDA NASRIY SHE'R TAJRIBASI

Ahmedov Hoshim Hakimovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: Ahmedov.hoshim60@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14968576>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusufning she'riy tajribalaridan bir namuna, ya'ni mansurasi – "Osmonning oxiri" o'rganib chiqiladi. Mazkur she'rga xos ijodiy - badiiy talqinning o'ziga xos jihatlari ochib beriladi, muayyan xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf, "Osmonning oxiri" she'ri, xulosalar.

Аннотация. В этой статье анализируется «мансура» (стихотворение в прозе) народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа «Конец неба». Раскрываются уникальные аспекты и художественные особенности данного стихотворения, излагаются соответствующие теоретические выводы.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф, стихотворение в прозе «Конец неба», теоретические выводы.

Abstract. This article analyzes the poem of the national poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf - "The End of the Sky". Unique aspects of the artistic interpretation of this poem are revealed, theoretical conclusions are presented.

Keywords: Muhammad Yusuf, poem "The End of the Sky", theoretical conclusions.

KIRISH. MUAMMONING DOLZARBLIGI.

Adabiyot tarixi fanidan ma'lumki, o'zbek she'riyatida mazmun va shakl muammosi uzoq davrlardan beri o'rganilidi. O'rni bilan goh mazmun yetakchiligi o'rta qadamga chiqadi, o'rni bilan esa shaklning ahamiyati ortib ketadi. XX asr o'zbek adabiyotida katta o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Yangi janrlar va yangicha badiiy shakllar paydo bo'ldi. Jumladan, nasrdagi nazmlar, nasrdagi she'riy mashqlar iste'molga kira boshladi. Cho'lpon, Fitrat kabi ijodkorlar sochma - nasriy she'rlarning rosmi namunalarini yaratdilar. Keyinchalik Ibrohim G'afurov nasriy she'rlarni boshqacha nom - "Mansuralar" deb atadi hamda shunday ijod namunalaridan iborat kitob ham tartib berdilar. Mazkur maqolada nasriy she'r shakli bo'lmish - mansura haqida, yanayam to'g'rirog'i uning Muhammad Yusuf ijodidagi ko'rinishi to'g'sida gap boradi. Bunda mazkur shaklning nazmiy o'ziga xosligi, poetik imkoniyatlari qay darajada ochilgani tahlilga tortiladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

O'zbek adabiyotida mansuralar ko'p ham o'rganilmagan. O'z vaqtida ba'zi adabiyotshunoslar u yoki bu darajada qisman munosabat bildirishgan. Asosan Qozoqboy Yo'ldosh, Dilmurod Quronov, Rahmon Qo'chqor kabi taniqli



mutaxassislarning davriy matbuotda bildirgan fikrlari, maqolalari ma'lum. Lekin yaxlit tarzda, bu she'r shakli haqida monografik tarzda qilingan tadqiqotlar uchramaydi. O'zbek she'riyatida paydo bo'lgan "Mansura" she'r shakli o'tgan asr oxirlarida va yangi asrimizda ba'zi ijodkorlar murojaat qilayotgan nazm va nasr oralig'idagi shakl. Ayrim olimlar buni janr ham deydilar. [1. *Mansura* – arabcha 1. Sochilgan. 2. Nasriy, prozaik. Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: P Shamsiev, S. Ibrohimov. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973, 360-bet.]

Biz muammoni o'rganar ekanmiz, avvalo tarixiy-qiyosiy metodga tayanamiz. Sababi, har qanday yangilik tarixiy rivojlanish hosilasi. Shunday ekan, uni qiyosiy tarixiy jihatdan o'rganmoq zarur. Va albatta har qanday ijodkorning mahsuloti o'ziga xosligi (originalligi) - tipologik tahlil orqali aniqlanadi. Qiyosiy-tahliliy metod esa u yoki bu ijod namunasining o'ziga xoslik - originalligini aniqlashga yordam beradi. Shu tariqa bir necha metodlarni qo'llash orqali biz asl maqsadga erishamiz - shoir Muhammad Yusufning poetik mahoratiga, u erishgan nazariy yangilikka, demakki, yetuk badiiy ijodiga tegishlicha baho bera olish malakasiga ega bo'lamiz.

Nasriy she'rning mansura shaklini ma'qul ko'rgan taniqli o'zbek adiblaridan biri – Muhammad Yusufdir. O'zbek madaniy hayoti, she'riyat muhoblari "Muhammad Yusuf" degan fenomenni tan oladi. "Ijodkorning tug'ilishi insonni lol qoldiruvchi ulug' hodisadir. Bu juda qudratli, birinchi muhabbatga o'xshab, insonni butunlay o'zgartirib yuboradigan kechinmalar va ba'zan u, ayniqsa, shoirlarda ayni shu birinchi muhabbat bilan ham bog'liq bo'ladi. Poeziya xuddi bahorday qalbni yashnatadi. Olam to'satdan ko'z o'ngingda butunlay yangilangan tarzda, moviy ranglarda namoyon bo'ladi." [2.19]

TADDIQOT NATIJALARI.

Ta'kidlash mumkinki, mansuraning poetik imponiyatlari keng va katta. Shoirning "Osmonning oxiri" [3,71] nomli mansurasi o'zining mushohadaga boyligi, o'ziga xos badiiyliigi, tilining umumijodiga xos-xalqona soddaligi va ravonligi bilan ajralib turadi.

Shoirning ushbu mansurasi uch mustaqil qismdan tashkil topgan. G'oyaviy mazmun mana shu uch qismda dinamik tarzda rivojlanib boradi. Uchinchi qism xulosa bilan yakunlanadi. Har bir qism tugal poetik-kompozitsion tuzilishga ega. Ifodalanayotgan fikr misrama-misra bir-biriga mantiqan ulanib, har bir qismining umumiy yaxlitligini hosil qiladi. Har uch qism o'rtasida ham muayyan qat'iy chegara yo'q, faqat muallifning shartli belgisigina ularni (mansurani) uchga ajratib turadi. Mansura obrazli ifodalarga, teran - shoirona fikriy umumlashtirishlarga boy. Asosiy g'oya – bu dunyoning gunogunligi-yu, yashamoqlikning sir-sinoatlarini badiiy



istifoda etish. Butun mansura davomida turli xil tafsillarni maxsus keltirish va ularni o‘zaro chog‘ishtirib xulosalar chiqariladi:

Suv odamning mardikori: hosil beradi,
tegirmon yurg‘izadi.

Odam uni o‘ylamaydi.

Dunyodagi hamma narsa odamga yaqinlashishi
bilan o‘zligini yo‘qotadi.

Odam odamga yaqinlashganida ham topganidan
yo‘qotgani ko‘proqdir... (3. “Ishq kemasi”. Misollar shu kitobdan olinib,
sahifasi qafs ichida berildi. – H.A. 71-bet).

Bizga ma’lum qadim turkiy ajdodlarimiz yodnomalarida shunday so‘zlar bor
ekan:

“Bilgan odaming – shayton, bilmaganing – inson”. [4,12]

Bir joyda oftob bilan bog‘liq tasvir bor:

Oftob qaerga botadi, deyman bobomga. Osmonning oxiriga, deydi u. Oftob
osmonning oxiriga borib botmaydi, balki yig‘laydi. (72-bet).

Elda mashhur gruzin adibi Nodar Dumbadze qalamiga mansub “Abadiyat
qonuni” romanining VI – bobi oftobga bag‘ishlangan. [5, 254]. Unda insonlar
o‘rtasidagi kin – adovat, ko‘rolmaslik-hasadgo‘ylik, fisqu fasod, oqibatsizlikdan
ozurda bo‘lgan quyosh insoniyatni, olamni tark etadi. Oftobning yig‘lashi shundandir
balki?

Mansuraning ikkinchi qismida poetik xulosalar yana kengayib, tasvir
qamrovining, ko‘lamining mundariyasi ham ortadi. “Osmonning oxiri qaerda?” deb
qo‘yilgan so‘roq atrofida mustaqil, tugal ma’no kasb etuvchi misralardan falsafiy
xulosalarni o‘qiymiz:

Haqiqiy she’riyat hamisha oyoq ostida. Misralar qulunlar kabi tuproqqa
ag‘anab yotishibdi.

Tur toychoq chopamiz, desang bas. Biz har zamon bir oyoq ostiga boqib she’r
topamiz. Keyin uning changini qoqamiz va qancha ko‘p qoqsak – shuncha ko‘p she’r
yo‘qotamiz...

Barcha buyuk zotlarning buyukligi ham xokisorligidir! (73 bet)

E’tibor qiling, naqadar teran falsafa: xavoyi so‘zlardan emas, tufroq kabi
xokisor so‘zlardan yozilgan she’rlar aziz. Ahmad Yassaviy ta’kidlaganidek,
xokisorlik – haq taoloni tushunish yo‘li:

Boshim tufroq, o‘zim tufroq, jismim tufroq

Haq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq. [6, 57]

Bundan tashqari, yana bir haqiqat – “bir oyoq ostiga boqib she’r topish”
diqqatni tortadi. Bu degani she’rni bir qolip(stereotip) asosida, biryoqlama baholash



urf bo‘lgan davrlarga ishora go‘yo. Shunday biryoqlamalikdan qutulolmagan she‘rshunoslar, adabiyotchilarga ishora. Aksariyat, mana shunaqa yakkaxokim, andozachilarning she‘r “changini qoqishlari” tufayli ham she‘riyatimiz, adabiyotimiz kemptik bo‘lib keldi.

Mansuraning uchinchi qismida ham noodatiy, ibratli fikrlarning guvohi bo‘lamiz. Uchqur xayol, taxayyul quvvati, cheksizligi insonning tafakkur hofizasini charxlaydi, ma‘naviyatni boyitadi, bil‘aks “xayol so‘qmog‘i qisqa zotlarning umri ham qisqadir”.

His-tuyg‘u, tasavvur mo‘lligidan, har bir nuqta-zarra, tirik mavjudotga shoirona, jununiy, ruhiy intiqlik bilan qarovchi, kuzatuvchi odam ba‘zan boshqalar ko‘z o‘ngida g‘alati ko‘rinadi:

Mening kimligimni

Bilmaydi hech kim.

Men bir g‘alatiman

Men alohida.

Kiyikning qonini

Keladi ichgim.

Chayonni chaynagim

Kelar gohida... (73-bet).

Shoir mansura davomida barmoq tizimiga xos erkin marom, turoqlanishga mos she‘riy misralar tuzadi. Fikr oqimi kuchaygan o‘rinda yana mansuraviy-nasriy shaklga o‘tadi. Adib har ikki maromni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali fikr, kechinma tasvirining izchilligini saqlagan.

Ko‘ngli - qalbiga ezgulik ingan inson hech bir zotga, hatto chumoligayam ozor bergisi kelmaydi. Har zarrada mantq bor. Hayot atalmish nashida har jonzot uchun aziz:

Hech kimga ozori tegmay, o‘zicha g‘ildirab ketayotgan bir g‘arib chumolini bosib oldim. Uning chinqirig‘i olamni buzdi. Men darrov atrofqa qaradim. Xayriyat hech kim eshitmadi...

O‘sha chumoli bugun iniga qaytib bormaydi. Men esa oqshom televizordan oqibat haqida she‘r o‘qiyman, kimningdir, ehtimol, menga havasi ham keladi... (74-bet).

Halima Xudoyberdiyeva Muhammad Yusuf haqida yozadi: “Hali hech kim “Kimda g‘am ko‘p bo‘lsa - u mening onam” demadi. Nazarimda, g‘amdiydalarga hech birimiz Sizchalik bag‘rimizni ochganimiz yo‘q.” [7, 277]. Mansuraning boshidan – oxirigacha takrorlanib turuvchi, kompozitsion yaxlitlikni ta‘minlab keluvchi syujet chizig‘i – savolga muallif: osmonning oxiri – boshing yostiqa yetgan



joyda! – deb nuqta qo‘yadi. Illo, uning mazmun-mohiyatini bilish bandasi uchun dushvor.

Demak, mansura ko‘rinishidagi nasriy she‘rlarning ikki xil shakli mavjud: 1. Mansuralar. 2. Mansura – dostonlar.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatayaptiki, nasriy she‘rlarning bu ikki shakli ham ijodkorlar uchun yangi-yangi ufqlar ochadi.

Bir zamonlar adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov tufayli mashhur bo‘lgan - “mansura” aftidan boshqa ijodkorlarni ham qiziqtirmoqda...Mansurada har bir satr (misra) nisbiy mustaqillikka ega bo‘ladi. Uning ichki gap qurilishida o‘ziga xos intonatsiya, inversiya, maromga rioya etiladi. Qat‘iy vazn, turoqlanish, izchil qofiya nasriy she‘rlar, xususan mansuralarda o‘ta erkin ravishda, ichki maromda asoslangan holda tayin etiladi. Mualliflarning nasriy she‘rlarning mansura shaklini tanlashlarining boisi ham shundan bo‘lsa ajab emas.

Nasriy she‘rlarning uchinchi shakli – mansuralar tuzilishi jihatidan o‘ziga xoslikka ega. Birinchidan, ulardan bandlarga ajratish hollari uchramaydi. Marom, ichki ohang ularni erkin she‘rdan ajratib turadi. Bunda har bir misraning mustaqil ma‘no tashish funksiyasi ortadi. Natijada, bir-ikki misradangina iborat hikmatomuz, aforistik shakldagi nasriy she‘r yuzaga keladi.

O‘ylashimizcha, nasriy she‘rlar (nasrdagi nazmlar, mansur she‘rlar, mansuralar) - adabiy jarayonning, poetik ijodning ajralmas hamrohi.

XULOSA. Adabiy hayotda kam uchraydigan, nogahon pallada nazm va nasr ko‘prigida uchrashadigan “mansura”lar muayyan badiiy niyatni yuzaga chiqarishi mumkin ekan. Buni Muhammad Yusufning “Osmonning oxiri” nomli mansurasi misolida ko‘rdik. Bizningcha, bu shaklning afzalligi yana quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Poetik fikrni boricha - ilhom “buyurganicha” qog‘ozga tushirish - ifodalash imkoniyati;

2. Qofiyani va she‘r maromini erkin tanlash,;

3. Misralarni poetik mantiq talabi bilan joylash;

4. She‘rda ratsional - ijodkor dilida tug‘ilgan favqulodda fikr-g‘oyani saqlab qolish va o‘zi istagan shaklda - nasrga yondosh ifodalash;

5. Ham nasr, ham nazm talabi-qonuniyatlaridan butkul uzoqlashmaslik, badiiyatni saqlab qolish. Ko‘rinadiki, bunday usulda ijod namunasini bitish ijodkor insondan kam mahorat talab qilmaydi. Balki shuning uchundir, unga kamdan kam adiblar murojaat qilishadi. Bir mansurada shoir hayotning butun murakkabligini, ko‘ngil iztiroblarini, yaxshi va yomon, ezgulik va yovuzlik kurashi kabi umuminsoniy munosabatlar ko‘lamini badiiy aks ettirishga urinadi va qaysidir ma‘noda bu ijodiy maqsadiga erishadi ham.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П. Шамсиев, С. Иброҳимов. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1973. - 784 б.
2. Ян Парандовский. “Сўз кимёси”. Бадиа-эссе. Таржимонлар: О. Шарафиддинов ва М. Акбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 464 б.
3. Муҳаммад Юсуф. Ишқ кемаси. Шеърлар. Тошкент, “Ёзувчи” нашриёти, 1991. – 200 б.
4. Қадимги туркий мақоллар ва ҳикматлар. М. Пирриев тайёрлаган. “Қалб кўзи” газетаси, №4 (8) 1993, апрел сони.
5. Думбадзе Нодар. Абдиёт қонуни. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, - 290 б.
6. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991, - 256 б.
7. Худойбердиева Х. Шоир замондошлари хотирасида/ Муғаммад Юсуф. Сайланма. Шеърлар, дostonлар, хотиралар. Т.: “Шарқ”. 2005. - 288 б.

